

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Ч.Х.Чамолов	
Ифодаи мафхуми ишқ дар шеъри фарзона	435
Е.В.Шевченко	
Особенности историзма в романах пиримкула кадырова	439
Я.И.Нишанов	
Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества	441
E.R.Adjeminova	
Phraseological image and motivational model	444
Н.Д.Ирина	
Влияние философии ницше на русскую литературу начала XX века	447
Н.Д.Ирина	
Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис	453
Я.И.Нишанов	
Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека	457

TILSHUNOSLIK

I.M.Qo'chqarov	
The grammatical features of speech acts in english	460
A.Z.Nurbek	
O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar	464
S.A.Yusupova	
Pragmatic use of respect in various communicative contexts	471
S.A.Yusupova	
linguistic expressions of respect in english and japanese	474
Sh.Y.Usmoнова	
Comparative study of landscape terms in english and uzbek	477
M.K.Uktamova	
The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units	480
D.X.Madazizova	
Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida	483
Sh.B.Karimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi	488
Sh.B.Karimova	
O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili	495
Sh.R.Karimjonova	
Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english	500
Sh.B.Dushatova	
Euphemisms representing hidden and mysterious concepts	507
Sh.T.Axmadjonova	
Definition and components of comprehension skills	511
Sh.M.Aripova	
Linguocultural analysis of superstitions	515
Sh.M.Aripova	
O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili	519
Y.U.Abdurazzakov	
Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi	522
N.X.Alieva	
Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages	525
R.U.Axrorova, M.T.Mamadaliyeva	
O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'rni	530
M.S.G'aniyeva	
O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini	533



UO'K: 81`322:811.512.133+811.111

**O'ZBEK TILI VA INGLIZ TILLARIDA KVANTITATIVLIK BIRLIKLARINING
SATHLARARO TAHLILI****МЕЖУРОВНЕВЫЙ АНАЛИЗ КОЛИЧЕСТВЕННЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И
АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****THE INTER-LEVEL ANALYSIS OF QUANTITATIVE UNITS IN UZBEK AND ENGLISH
LANGUAGES**

Karimova Shaxloza Boyquzi qizi 
Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida kvantitativlikni ifoda etuvchi lingvistik vositalarning tahlili va ularning sathlararo namoyon bo'lish xususiyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotda fonetik, morfologik, leksik va frazeologik sathlarda kvantitativlikni ifodalash imkoniyatlari batafsil o'rganilib, ikki til o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar aniqlangan. Maqolada kvantitativlikni ifodalash vositalarining funksional xususiyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kvantitativlikning boshqa til sathlarida ham ifodalanishi ehtimoli ko'rsatilib, bu hodisa murakkab lingvistik tizim sifatida baholangan. Olingan natijalar kvantitativlikning tilshunoslikdagi ilmiy o'rni va ahamiyatini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, maqola o'zbek va ingliz tillarining kvantitativlikni ifodalash vositalari tizimidagi o'ziga xos jihatlarni qiyosiy baholash imkonini beradi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslikda kvantitativlikni turli sathlar bo'yicha o'rganish uchun nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi. Bu ish lingvistik tadqiqotlarning yangi yondashuvlarini taklif etib, mazkur mavzudagi ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola lingvistik sathlarda kvantitativlikni o'rganishda til o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga qaratilgan.

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается анализ и межуровневое проявление количественности в узбекском и английском языках. В исследовании детально изучены возможности выражения количественности на фонетическом, морфологическом, лексическом и фразеологическом уровнях, выявлены сходства и различия между двумя языками. Также анализируются функциональные особенности средств выражения количественности. В ходе исследования отмечена возможность проявления количественности на других языковых уровнях, что оценивается как сложная лингвистическая система. Полученные результаты помогают выявить научную значимость и место количественности в языкознании. Кроме того, статья позволяет сравнительно оценить особенности системы средств выражения количественности в узбекском и английском языках. Данное исследование служит теоретической и практической основой для изучения количественности на различных уровнях языка. Работа предлагает новые подходы в области лингвистических исследований и имеет важное значение для дальнейшего изучения данной темы. Статья направлена на выявление общих и отличительных черт языков в выражении количественности на различных языковых уровнях.

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the expression and inter-level manifestation of quantitateness in Uzbek and English. The study thoroughly examines the possibilities of expressing quantitateness at the phonetic, morphological, lexical, and phraseological levels, identifying similarities and differences between the two languages. The functional characteristics of the means used to express quantitateness are also analyzed. The research highlights the potential for quantitateness to manifest at other linguistic levels, which is evaluated as a complex linguistic phenomenon. The results contribute to understanding the scientific significance and role of quantitateness in linguistics. Moreover, the article enables a comparative evaluation of the unique features of the system of expressing quantitateness in Uzbek and English. This research serves as a theoretical and practical foundation for studying quantitateness across various linguistic levels. The work introduces new approaches to linguistic studies and holds significant value for further research in this field. The article is aimed at identifying commonalities and distinctions between the two languages in expressing quantitateness at different linguistic levels.

Kalit so'zlar: kvantitativlik, fonetik vositalar, morfologik vositalar, leksik vositalar, frazeologik vositalar, sathlararo tahlil, o'zbek tili, ingliz tili, lingvistik o'xshashliklar va farqlar.

Ключевые слова: *квантитативность, фонетические средства, морфологические средства, лексические средства, фразеологические средства, междуровневый анализ, узбекский язык, английский язык, лингвистические сходства и различия.*

Key words: *quantitativeness, phonetic means, morphological means, lexical means, phraseological means, inter-level analysis, Uzbek language, English language, linguistic similarities and differences.*

KIRISH

Olam va uni tashkil etuvchilarining tizimli munosabatlari haqidagi qarashlarni ilm-fan XIX-XX asrlarga kelib taqdim eta boshladi. Borliqning evolyutsiya jarayonida insoniyatning sistem rivojlanishi, tabiatdagi barcha turlarning o'zaro bog'liqligi va bir-birlarini taqozo etishi, yaxlit va bir guruh bo'lib munosabatga kirisha olish imkoniyati haqidagi ta'limotlar yaratila boshlandi. Unga ko'ra, butun bir olam, hatto uning eng kichik ko'z ilg'amaydigan zarralari ham ma'lum komponentlardan iborat bo'lib, ular birgalikda uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Dastlab, insoniyatga tegishli bo'lgan chuqur ichki bog'liqliklar va o'zaro munosabatlardagi uzviyliklar haqida K.Marks va F.Engelslarning qarashlari, tabiatdagi butun organik olamni tashkil etgan sistem guruhlar va ularning tadrijiy rivojlanishidagi aloqadorliklarini isbotlagan J.B.Lamark va Ch.Davrin, shuningdek, materiyaning turlarini o'rganishdagi atomlarning sistematik munosabatlarini ochiqdigan A.M.Butlerov va D.I.Mendeleyev va atomning tizimiy tuzilmasini namoyish etuvchi modellarni yaratgan N.Bor va E.Rezerfordlar ilm-fan taraqqiyotida tub burilish yarata olgan edi.

Tilshunoslikda tilning tizimli yondashuvi uning ichki tuzilishi va elementlari o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi tushunchalar aynan yuqorida sanab o'tilgan kashfiyotlardan keyin XX asrning boshlarida F.de Sossyur va I.A.Boduen de Kurtenelar tomonidan ochiq sharhlandi. Bunday qarashlar XIX asrning o'rtalarida nemis olimlari V.Gumbolt va G.Paulemlar tomonidan tilning "organizm" haqidagi qarashlari taqdim etilganligiga qaramay, til bu belgilar sistemasi haqidagi yondashuvi va uning ichki tuzilishini o'rganishdagi targ'ibotlar F.de Sossyurga tegishlidir. Uning 1916-yilda nashr etilgan "Umumiy lingvistika kursi" asari tom ma'noda sistem tilshunoslikning asosiga aylandi [7,69].

Tilni sistema sifatida tahlil qilish va o'rganishda uning tashkil etuvchilarini ham alohida o'rganish imkoniyati keng ekanligi ko'plab tilshunoslar tomonidan ta'kidlanadi. Fonetik, morfologik, leksik, frazeologik, sathlar o'zining ichki tashkil etuvchilari va ularning ham o'z lingvistik xususiyatlari mavjuddir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kvantitativlikning o'rganilishining o'zi nihoyatda katta va keng ko'lamli tadqiqot. Uning leksik sathda ifodalanishi ham alohida ahamiyat kasb etadigan jarayon. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'plab topiladi. Ular, asosan, turli tillarda kvantitativlikni ifodalash usullarining xilma-xilligi va o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan tilshunoslar diqqatini tortgan. Rus tilshunosligida kvantitativlikni miqdor kategoriyasi sifatida o'rgangan olimlardan I.A.Boduen de Kurtene, V.Z.Panfilov va S.G.Shyaxtenkolarni ta'kidlash mumkin. Leksikologiyadagi miqdoriy baholash G.G.Galich, L.A.Belovolskaya va S.M.Kolesnikova ishlarida ko'rsatilgan. A.V.Isachenko va Y.S.Maslova ishlarida miqdor kategoriyasi aspektual jihatdan o'rganiladi. Y.D.Apresyan, A.A.Ufimseva ishlarida kvantitativ semantikasi leksik material asosida ko'rib chiqilgan.

Tilshunoslar miqdor kategoriyasini bevosita sonlar va ularning morfologik miqdor kategoriyasi sifatida ko'rishadi. Miqdor yoki uning semantikasini esa tilda diskret miqdor (sonlar va miqdor ifodalovchi ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'zlar) va nodiskret miqdor (sifat va ravish orqali ifodalangan so'zlar)larga ajratiladi [8,414].

Tilda miqdor kategoriyasining oddiygina birlik yoki ko'plik shakllarida namoyon bo'lish holati – bu muhim lingvistik xususiyat bo'lishiga qaramay, miqdor semantikasi ancha kengroq tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi. U o'zida predmetlarning parametrlari, holat va harakatning belgi xususiyatlarini aks ettiradi va davomiylik, qisqalik, daraja, o'lcham, birsobyektililik va ko'psobyektililik kabi o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi.

Kvantitativlikning leksik ifodalanishi haqida gap ketar ekan, leksik-semantik bog'liqliklarni, aynan leksik ifodalar orqali anglashiladigan kvantitativlikning mazmuniy ko'rinishlarini, semantik kategoriyalarga ega bo'lish holatlari va ularning maydon hosil qilish imkoniyatlari haqida ham to'xtalib o'tmoqchimiz.

TILSHUNOSLIK

Shu kabi tadqiqotlarda kvantitativlik atamasi o'rinda aksariyat hollarda o'zbek tilshunoslari tomonidan "miqdor" atamasi qo'llanilgan. Miqdor semantikasi juda keng o'rganilgan mavzulardan. Ulardan F.Safarov o'zining ilmiy izlanishida o'zbek tilida son-miqdor mikromaydonini va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlarini yoritadi. Unga ko'ra lisoniy vositalar son-miqdorni ifodalovchi vositalar salmog'i bir emasligi ularning maydon tutgan o'rniga ko'ra farq qilishini aytib o'tadi. Bundan tashqari kvantitativlikni turli tadqiqotchilar miqdor atamasi orqali miqdoriy ifodalarni so'zlarga qo'shiladigan egalik qo'shimchalar orqali amalga oshirish imkoniyati [3,145], miqdor konseptini ifodalashda hisob so'zlarning o'rnini [2,172], ularning tarixiy-leksikografik asarlarda namoyon bo'lishi [5,261], semantik kategoriya sifatida o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin [6,41].

Shu bilan bir qatorda tilshunoslarning logik – semantik kategoriya tushiniladigan kvantitativlik kategoriyasini ajratib ko'rsatadilar. Ushbu kategoriyada miqdor anglatuvchi tushunchalarning barchasi aktuallashadi (miqdor, son, ko'plik, birlik, davomiylik va boshqalar). Bu borada miqdoriylik segmentasiyasi (ma'lum bir aniq obyektga tegishli bo'ladi) va kvantitativlikni (xohlagan obyektning istalgan miqdoriy o'lchovlari, uning segmentasiyasidan qat'iy nazar) farqlash lozim. Kvantitativlikning bunday universal xususiyatlarini qaramasdan, har bir tilning rivojlanish jarayonida uni ifodalanishi xos bo'lgan uslublar mavjud [9].

NATIJA VA MUHOKAMA

Kvantitativlikning ifoda vositalari turli tillar va tadqiqotlarda turlicha berilgan. Ularni aynan o'zbek va ingliz tillarida ifodalanish imkoniyatlari borasidagi o'z qarashlarimizni keltirib o'tamiz.

O'zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning ifoda vositalari:

1. Fonetik vositalar – o'zbek va ingliz tillarida unli va undosh tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali ma'no kuchaytirish va ularning darajasini oshirish. Masalan,

"Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi: – Akajon! Jo-on aka!.. – Nima berasan? (A.Qahhor, Anor)

"Then he must be "very clever" (Z.A.Tabassam, A study of linguistic devices in their of love by Bapsi Sidwa)

2. Morfologik vositalar – o'zbek tilida quyidagi qo'shimchalar bilan ifodalanadi:

otning son kategoriyasi shakl yasovchi *-lar* qo'shimchasi orqali – *bolalar, daraxtlar, talabalar, uylar, daftarlar, doktorlar;*

so'z yasovchi qo'shimchalar *ser-, ba-, -dor, -siz* lar orqali – *sersuv, badavlat, unumdor, sanoqsiz.*

Morfologik vositalar – ingliz tilida quyidagi qo'shimchalar bilan ifodalanadi:

shakl yasovchi qo'shimcha *"s"* – ot turkumi ko'plik qo'shimchasi, o'zbek tilidagi *-lar* qo'shimchasi to'g'ri keladi – *boys, flowers, tables, students.*

So'z yasovchi qo'shimchalar:

suffikslar: *-ful, -less, -some, -fold – handful, countless, twosome, threefold;*

prefikslar: *multi-, poly-, uni-, bi-, tri-, hemi-, semi- multinational, polyfunctional, unicycle, bilingual, triangle, hemistich, semifinal.*

3. Leksik vositalar – o'zbek tilida quyidagilarni tashkil etadi.

Raqamli ifodalar:

raqamlar – *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz;*

sonlar – *o'n ikki, yigirma besh, o'ttiz to'rt, sakson olti...;*

tartib sonlar – *birinchi, ikkinchi, yettinchi...;*

taqsim sonlar – *beshdan bir, oltidan uch, o'ndan ikki...;*

maxsus leksik vositalar:

ot turkumida numerativlar (hisob so'zlar) – *hovuch, dona, botmon, misqol, chaqirim, qarich, qultum, santimetr, metr, gramm, tonna, poda, to'da, gala;*

sifat turkumida – *ko'p, kam, yetarli, oz, ortiqcha, oshiq;*

ravish turkumida – *juda, o'ta, nihoyatda, benihoya;*

olmosh turkumida – *bir nechta, bir qancha, allaqancha, hamma;*

juft so'zlar – *oz-moz, onda-sonda, ancha-muncha;*

takroriy so'zlar – *ko'p-ko'p, qator-qator, dunyo-dunyo, kam-kam;*

Kvantitativlikning ifoda vositalaridan sanalgan raqam va sonlar asosiy miqdor anglatuvchi birliklar bo'lib, ularni farqlash muhim hisoblanadi. Raqamlar hozirgi kunda 10 ta noldan to'qqizgacha bo'lgan belgilarni o'z ichiga oladi. Son esa, raqamli kombinatsiyadir.

Ingliz tilida quyidagi leksik vositalar bilan ifodalanadi:

Raqamli ifodalar:

raqamlar – *one, two, three, four, five, six, seven, eight, nine*;

sonlar – *twenty one, twelve, thirty four, ninety seven...*;

tartib sonlar – *eighth, ninth, tenth, sixth*;

taqsim sonlar – *half, quarter, one-third*;

maxsus leksik vositalar:

ot turkumida guruh otlari (collective nouns) – *team (jamo'a), group (guruh), crew (olamon), flock (gala-qushlar), herd (poda-hayvonlar), pack (to'da -itlar), swarm (uyum-hasharotlar), bundle (to'plam, bog'lam), pile (uyum), bunch (uyum, guruh-mevalar), set (to'plam), choir (xo'r), fleet (to'plam-transport), plenty (yetarli miqdor), piece (bo'lak), slice (bo'lak, tilim), bit (kichik miqdor), dozen (12lik), pair (juft), score (20lik)*;

o'lchov birliklari – *meter, kilogram, litre*;

kvantitativlar – *many, much, a lot, lots, few, a few, little, a little, each, every, some, any*;

sifat turkumida – *many, much, some, few, little, several, all, each, enough*;

ravish turkumida – *much, little, some, enough, too, very, so*;

olmosh turkumida – *many, several, some, few, all, any, none, each, one*;

juft so'zlar – *this and that, odds and ends, bits and pieces, drips and draps*;

takroriy so'zlar – *more and more, bit by bit, piles by piles, piece by piece, drop by drop*;

Sonlar – ingliz tilida ham ko'p tillarda bo'lgani kabi asosiy kvantitativlik vositasi hisoblanadi

[4].

Quantifiers – kvantitativlar biror narsaning miqdorini (ko'p, kam, yetarlicha ekanligini) ko'rsatish uchun ishlatiladigan vosita [1,26].

Sifat, ravish, olmosh turkumlari safida berilayotgan leksik vositalar ham kvantifierlarga juda yaqin, lekin ularning grammatik qurilishdagi o'rni va vazifalariga qarab farq qilishiga ahamiyat qaratish lozim. Har qaysi turkum tarkibida bo'lsa ham ular kvantitativlik ma'no xususiyatiga ega.

4. Frazologik vositalar – o'zbek tilida quyidagi vositalar bilan ifodalanadi:

so'z birikmalari – *"bir shingil", "ikki bukulib"*;

maqollarda – *Birni kessang, o'nni ek, besh qo'l barobar emas*.

Ingliz tilida kvantitativlik quyidagi frazeologik vositalar bilan ifodalanadi:

idioma – *all in one, in two minds*;

maqol – *Two heads are better than one, a stitch in time saves nine*;

kollakatsiyalar- collocation – *a thousand and one, a million times*;

frazologik fe'lli birikmalar (phrasal verbs) – *pick up (to take up a little amount), put on (to add a small amount)*.

XULOSA

Yuqoridagi taqdim etilgan tahliliy ma'lumotlar o'zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning turli sathlarda namoyon bo'lishi va kvantitativlikni ifodalovchi vositalarning ko'lami keng ekanligini ko'rsatib turibdi. O'zbek va ingliz tillarida fonetik, morfologik, leksik va frazeologik sathlarda namoyon bo'lishi va uning idoda vositalarining tahlili orqali uning tillardagi o'zlash va farqli jihatlarini ham ko'rsatib berildi. Bundan tashqari, kvantitativlik tilning yana boshqa sathlarida ifodalanish imkoniyatiga ega. Bizningcha, kvantitativlik ifodalovchi birliklar leksik, semantik, sintaktik, morfologik, grammatik, lisoniy, nolisoniy vositalar rang-barang va ular bir murakkab sistema sifatida namoyon bo'la oladi, degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Collins C. English grammar. Collins Birmingham University International Language Database, 1990. – P.26.
2. Egamberdiyeva N.L. O'zbek tilida miqdor konseptining ifodalanishida hisob so'zlarning ahamiyati. Research Focus, Uzbekistan, 2022. – B.172.
3. Kholmatova Z.T., Akhmadjonova M.B. Quantitative words and their usage in Uzbek Linguistics, 2022. – B.145.

TILSHUNOSLIK

4. Kim N and Narushevich A. Linguistic Means of Evaluation of Quantity in Texts Containing Numerical Lexemes. SHS Web of Conferences 50, 01115. CILDIAH, 2018.
5. Kimsanboyeva B., Muhammadsodiqova N. "Devoni lug'oti-t-turk" asarida miqdor ifodalovchi lisoniy birliklar. – DOI 10.5281/zenodo.8141219, 2023. – B.261.
6. Mamajonova M.N. Kvantitativlik – serqirra kategoriya. Maisto Przyszlosci, Kielce, 2022. – B.41.
7. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Fan, 2012. – Б.69.
8. Рахимова Э.Ф. Категория количественности и её выражение глагольной лексикой в русском и башкирском языках. Мир науки, культуры, образования. № 1 (68) 2018, – 414 с.
9. Солнцев В.М. Лингвистическая типология. Ответственный редактор. – М., 1985.